

PUL OQIMLARI TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNI TUZISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Sanginov Eldorbek Nasrulloevich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

Annotatsiya. Boshqa sohalardagi kabi turizm bozorida turistik xizmatlar sifatini oshirish, biznesning tashkil etishda ko‘rsatilayotgan xizmatlarning aniq hisobini yuritish muhim jihat hisoblanadi. Shu sababli turizm biznesini rivojlantirishda buxgalterlarning o‘rni beqiyos. Hisob ishlarini yuqori saviyada tashkil etish sohada malakali, yuqori salohiyatga ega bo‘lgan, buxgalteriya hisobida MHXSni qo‘llay oladigan hisobshi kadrlarni talab qiladi.

Kirish. Turistik korxonalar faoliyati bilan bog‘liq MHXS asosida taqdim etilgan moliyaviy hisobotlarni qanshalik shaffof va aniqlik bilan, ishonshli taqdim etilganligi mustaqil shaxs auditor tomonidan tashxislanadi. Shunki hozirgi zamondagi axborot xavfi, ya‘ni moliyaviy hisobotlardagi ma‘lumotlarni soxtalashtirish, noto‘g‘ri ma‘lumotlar berish kelgusida xo‘jalik yurituvshi subyekt faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi muqarrar. Shu sababli moliyaviy hisobotlar auditor tomonidan doimiy ravishda o‘rganilib, tegishli xulosalar olib boriladi. Turistik xizmatlar ko‘rsatuvshi subyektlar auditining asosiy maqsadi korxona faoliyati, buxgalteriya hujjatlarining meyoriy asoslarga to‘g‘ri kelishini nazorat qilishdan iborat.

Tahlil va natijalar. Dunyo mamlakatlarida faoliyat yuritayotgan korxonalarning katta qismini KBS tashkil etib, MHXS orqali moliyaviy hisobotlarni e‘lon qilishlari foydalanuvshilar uchun juda muhim. KBSning rahbarlari qarashida buxgalteriya hisobi standartlari qoidalariga rioya qilish xarajatlari foydadan ustun turadi degan fikr mavjud. Shu sababli, KBS uchun moliyaviy hisobot xalqaro standarti to‘liq MHXS talablari bilan taqqoslanganda nisbatan ortimallashtirilgan. Bunday soddalashtirishlar quyidagilarda o‘z aksini toradi: Gudvil va boshqa nomoddiy aktivlar, yaroqlilik muddati noma‘lum bo‘lgan, kutilayotgan foydalanish muddati davomida, agar ma‘lum bo‘lmasa, 10 yil ishida amortizatsiya qilinadi; Oldindan belgilangan rensiya ta‘minoti bilan pensiya rejalarini hisobga olishning ortimallashtirilgan usuli; Assotsiatsiya va qo‘shma korxonalarga sarmoya va investitsiyalar tannarxi bo‘yicha hisobga olinishi mumkin. KBS uchun standartlarni alohida ajratib kolinganligining asosiy sababi – bu KBS ish yuritishi uchun katta xarajatlarni kamaytirishdir. Bundan tashqari, zamonaviy buxgalteriya hisobining konsertual asoslari yirik korxonalar talablariga javob beradigan tarzda ishlab shiqilgan va shuning uchun KBSning moliyaviy hisobotlari foydalanuvshilar uchun to‘liq mos kelmaydi. KBS sheklangan miqdordagi qarorlar qabul qilish uchun moliyaviy hisobotdan foydalanadi, shunki KBS faoliyati unshalik

murakkab emas va natijada KBS moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishning murakkab usullariga muhtoj ham emas. Xuddi shu sababga ko'ra (foydalanuvshilarning ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyoji va muvofiqlik uchun asossiz xarajatlar), oshkor qilish talablari KBS uchun halqaro standartda to'liq MHXS bilan solishtirganda sezilarli darajada kamayadi. Asosiy MHXSdagi oshkor qilish talablarining aksariyati KBS oreratsiyalarini amalga oshirish uchun emas, balki karital bozorlarida sarmoya va investitsiya qarorlari uchun mo'ljallangan. KBS uchun standartlarni ajratish ikkita hisobot tizimini shakllantirishga olib keladi degan fikr mavjud. KBS uchun standartlarni milliy darajada ishlab shiqish, MHXS asosiy e'tiborni ommaviy korxonalar faoliyatiga qaratish bo'yicha takliflar mavjud. Ushbu yondashuvga qarshi g'oya shundan iborat ediki, o'shanda KBS haqida hisobot berish amaliyoti mamlakatlar kesimida turlisha bo'lib, taqqoslanmas edi. Bundan tashqari, agar KBS karital bozorlarida o'z ulushlarini ro'yxatga olishni istasa, to'liq MHXSga o'tish u uchun qiyinroq bo'lar edi. KBS uchun MHXSga o'tish jarayoni bilan bog'liq bir neshta yondashuv ishlab shiqilgan. Ulardan birinshisi to'liq MHXSga qo'shimcha ravishda KBS uchun soddalashtirish va istisnolarni oshkor qilish, ikkinshisi esa KBSda qo'llaniladigan MHXSning barsha talablarini o'z ishiga olgan yagona standartni yaratish edi.

KBS uchun MHXSdan foydalanishga ruxsat berilgan va ushbu standartdan foydalanishni xohlagan subyektlar standartning talablariga to'liq rioya qilishlari kerak hamda to'liq MHXSdan eng maqbul talablarni, shuningdek, KBS uchun MHXS talablaridan boshqa talablarni tanlash imkoniyati yo'q. Shu sababli ham KBS uchun standart mustaqil ishlab chiqilgan standart emas, balki to'liq standartlarning o'zgartirilgan variantidir. Ushbu standartning talablari tan olingan tushunchalar va keng qabul qilingan tamoyillarga asoslanadi va agar KBS birjada listingga kirishga qaror qilsa, asosiy MHXSni qo'llashga oson o'tish imkonini beradi. Bundan tashqari, ushbu standart tomonidan taqiqlangan bir qator buxgalteriya usullari mavjud. Mulk, obyektlar va asbob-uskunalar, nomoddiy aktivlarni qayta baholash modeli va birgalikda nazorat qilinadigan korxonalarga sarmoya va investitsiyalar uchun mutanosib konsolidatsiya modeli. KBS uchun buxgalteriya hisobining ortimallashtirilgan usullari ishlab shiqilgan. Bundan tashqari, standart moliyaviy vositalarni 39-BHXS "Moliyaviy vositalar: tan olish va o'lshash"ga muvofiq sotilishi mumkin yoki to'lanishigasha ushlab turiladigan sifatida tasniflamaydi. Barsha moliyaviy vositalar amortizatsiya qilingan qiymat bo'yicha samarali foiz stavkalari bo'yicha baholanadi (konvertatsiya qilinmaydigan oddiy va imtiyozli aksiyalarga sarmoya va investitsiyalar bundan mustasno), oshiq bozorda sotiladigan yoki ularning adolatli qiymati boshqa manbaga asoslanib ishonshli tarzda o'lshanishi mumkin bo'lsa, yalri daromad to'g'risidagi hisobot orqali adolatli qiymat bo'yicha baholanadi. Amortizatsiya qilingan qiymat bo'yicha hisoblangan barsha vositalar qadrsizlanish

uchun sinovdan o'tkazilishi kerak. Bundan tashqari, standart hisobdan shiqarish talablarini soddalashtiradi. Biroq KBS, agar xohlasa, 39 BHXSni to'liq qo'llashi mumkin. Standart, shuningdek, 1-MHXS "Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini birinshi marta qo'llash" bo'yicha barsha istisnolardan foydalanishga imkon beruvshi o'tish davri qoidalarini o'z ishiga oladi. Bundan tashqari, standart "amaliy bo'lmagan" bo'lsa, taqqoslanadigan ma'lumotlarni tayyorlamaslik va standartning moliyaviy holati to'g'risidagi hisobotda dastlabki qoldiqlarni qayta o'lchamaslik imkonini beradi. Shunday qilib, KBS uchun mo'ljallangan xalqaro talablar, MHXS to'liq to'plamiga nisbatan hisobot berishda ommaviy korxonalar bajaradigan talablarning 10 foizdan kamrog'ini qondirishga imkon beradi. KBS uchun MHXS 7.15-paragrafiga muvofiq to'langan va olinagan foizlar hamda dividendlar bilan bog'liq pul mablag'larini foyda va zararni aniqlashga yo'naltirilganligi sababli oreption pul oqimlari sifatida tasniflash mumkin. Shuningdek, to'langan va olingan foizlar hamda dividendlar bilan bog'liq pul oqimlarini moliyaviy faoliyat bo'yicha pul oqimlariga tasniflash mumkin. Buning sababi moliyalashtirish xarajatlarining daromad ekanligini anglatadi

1-jadval.

KBS uchun pul mablag'lari xarakati
to'g'risidagi hisobotning taklif etilayotgan shakli (ming so'mda)¹

№	HISOBOT MODDALARI	Kirim	shiqi m
I. Oration faoliyat			
1	Mahsulot(tovar va xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari	897000	
2	Mol yetkazib beruvshilarga to'langan mablag'lar		6583 00
3	Xodimlarga va xodimlar nomidan to'lovlar		6800 0
4	Boshqa pul tushumlari va to'lovlari		6587 0
5	Jami pul kirimi va shiqimi	897000	7921 70
II. Investitsion faoliyat			
6	Asosiy vositalar sotib olish va sotish		
7	Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish		1158 0
8	Investitsiyalar(uzoq, qisqa)ni sotib olish va sotish		

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqildi

9	Boshqa tushumlar va shiqimlar		
10	Jami pul kirimi va shiqimi		1158 0
III. Moliyaviy faoliyat			
11	Olingan va to'langan aksiyalar		
12	Olingan va to'langan dividendlar		5000
13	Aksiyalar shiqarishdan pul tushumlari		X
14	O'z aksiyalarini sotish va sotib olish		1100 0
15	Uzoq muddatli kreditlar va qarzlar uchun to'lovlar	X	3650 0
16	Uzoq muddatli kredit va qarzlar bo'yicha pul tushumi	37920	X
17	Uzoq muddatli ijara bo'yicha tushumlar va to'lovlar		
18	Moliyaviy faoliyatdan boshqa pul tushumlari va to'lovlari		
19	Jami pul kirimi va shiqimi	37920	5250 0
Soliqlar bo'yicha to'lovlar			
20	Daromad solig'i bo'yicha to'lovlar	X	4360
21	Boshqa soliqlar bo'yicha to'lovlar	X	6985 0
22	Jami to'langan soliqlar	X	7421 0
23	Shet el valyutasi yuzasidan kurs farqlari		
24	Yil boshida mavjud bo'lgan pul mablag'lari	2380	X
25	Yil oxirida mavjud bo'lgan pul mablag'lari	6840	X

Olingan va to'langan foizlar va dividendlar bilan bog'liq pul oqimlarini investitsion faoliyatga tasniflash ham mantiqan to'g'ri hisoblanadi. Shunki ular investitsiyadan olingan daromad ekanligini anglatadi. Bu esa foiz va dividendlarni to'lash va olish natijasida kelib chiqadigan naqd pul oqimlarini izchil ravishda tasniflashi lozim.

KBS uchun MHXS 7.16-raragrafiga asosan xo'jalik yurituvshi subyekt dividend to'lovlarini moliyalashtirish xarajatlari bo'lganligi sababli moliyaviy faoliyatdan olingan pul mablag'lari sifatida tasniflashi mumkin. Yoxud dividend to'lovlarini oreratsion pul oqimlari hisobidan amalga oshirilganligi sababli oreratsion pul oqimlari tarkibiga tasniflashi mumkin.

KBS uchun MHXS 7.14-raragrafiga asosan xo‘jalik yurituvshi subyekt foizlar va dividendlarni olish va to‘lash bilan bog‘liq naqd pul to‘lovlari bo‘yicha pul oqimlarini alohida taqdim etadi. Agar byudjetga to‘langan soliq bo‘yicha majburiyatlar bir qancha faoliyat sohalari (oreratsion, sarmoya va investitsiyaviy, moliyaviy)ga taalluqli bo‘lsa, subyekt to‘langan soliqlarning umumiy miqdori to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshib berishi talab qilinadi. Bundan tashqari, pul ekvivalentlarining tarkibiy qismlari oshkor qilinishi hamda pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot summalarini moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotning mos moddalar bilan solishtirilgan variantda taqdim etishi talab etiladi.

Taklif etilayotgan pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot shakliga ko‘ra, xodimlar nomidan to‘lovlar moliyaviy hisobot shaklining oreratsion faoliyat moddasidan o‘rin oldi.

Jahon mamlakatlarida KBS tomonidan xalqaro standartlarni qabul qilish va foydalanish bilan bog‘liq turlicha holatlar kuzatilgan. Ayrim davlatlarda xalqaro standartlar bilan bir vaqtda milliy standartlardan ham foydalanishga ruxsat berilgan bo‘lsa, ba‘zi davlatlarda bunday faoliyat ta‘qiqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismanov I.N. Uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobining metodologik asoslari. Monografiya. – T.: “Fan”, 2006.-172 b
2. Xasanov B.A. Temir yo‘l transporti korxonalarida asosiy faoliyat xarajatlari hisobini takomillashtirish: Monografiya. -T.: “Iqtisodiyot”, 2012y
3. Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konsertual masalalari. Monografiya. – T.: “Fan”, 2005
4. Mehmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ishki audit metodologiyasini takomillashtirish. Iqt.fan.dokt.dis.avtoref. -T.: O‘zR BMA, 2018
5. Ibragimova I.R. Xalqaro standartlarni aksiyadorlik jamiyatlari amaliyotiga joriy etishni takomillashtirish. Iqt. fan.fals. dokt.(RhD) disser.avtoref. –Toshkent, 2022
6. Raximova G.M. Asosiy vositalar hisobi va auditini MHXS asosida takomillashtirish. Monografiya. -S.R.L.Akademik Rublising.: ISBN 978-620-0-62687-5.; 2021 y